

MURDALAR HAM TIRILADIMI?

Xurshida Haydarova

TDYU Xususiy huquq fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Nodir Ramazonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri hisoblangan G'afur G'ulomning inson hayotini faqat o'zi o'zgartira olishi, shaxs o'zi uchun porloq kelajakni yaratmoqchi bo'lsa, hech narsaga qaramay mehnat qilishi kerakligi haqida yozilgan "Tirilgan murda" qissasi tahlil qilingan. Qolaversa, ushbu qissaning bugungi kundagi ahamiyati borasida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: G'afur G'ulom, o'zbek adabiyoti, she'riyat, jamiyat, mamlakat yoshlari, inson taqdiri.

O'zining nodir asarlari bilan xalqimiz ko'nglidamn joy olgan yozuvchi va shoir G'afur G'ulom yaratgan durdonalarni hech ikkilanmasdan o'zbek adabiyotining bir qismini tashkil qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ana shunday durdonalar ichida "Shum bola", "Yodgor", "Netay" kabi qissalari bilan bir qatorda "Tirilgan murda" qissasi ham alohida ajralib turadi. Chunki, ushbu qissada boshqa asarlarida uchratmaydigan hodisalarga guvoh bo'lamiz. Ya'ni yozuvchi o'zining boshqa asarlarida ko'proq insoniy fazilatlarga urg'u bersa, 1934-yilda yozilgan ushbu durdonada inson o'z taqdirini faqat va faqat o'zi o'zgartira olishi mumkinligi haqida yozadi.

Ushbu qissa asar bosh qahramoni Mulla Mamajon yalqov Muhammadali o'g'li tilidan hikoya qilinadi va aynan uning kundaligi shaklida yoritib beriladi. Bosh qahramon Mamajon asar boshida tambal, yalqov, ishyoqmas, dangasa kabi salbiy fazilatlarni o'zida jamlagan personaj sifatida tasvirlanadi. Negaki, u kundalik oddiy jismoniy harakatlarni bajarishni ham xohlamas, hatto o'rnidan turishga ham erinadigan kimsa edi, toki otasining vafotiga qadar. Mamajon otasining o'limidan so'ng bir necha kun och qolganini va hovlida pishib yetilgan jo'xorilarni terib pishirishga ham qo'li bormagani haqida so'zlaydi. Keyinchalik esa unga oddiy samovarchi g'amxo'rlik qiladi. Lekin, otasidan qolgan yerni mahalliy boylardan biri Mirjalol quruqning egaligiga o'tganligi sababli keyingi hayoti boyning qo'rg'oni bilan bog'liq bo'ladi. Yalqov Mamajonni aynan ushbu maskan mehnatga o'rgatdi, deya olamiz. Negaki, hayoti davomida birorta maishiy uy yumushlarini ham bajarmagan Mamajon shu yerda hayvonlarga qarashni o'rgandi va eng muhimi yangi kasb o'rgandi, qiynalib bo'lsa ham yamoqchilik qildi. Kolxozlashtirish harakati natijasida qo'rg'ondan ketib paxta ekish ishlariga jalb etildi. Ushbu qissasada, Mamajonni shaxs sifatida shakllanganligiga sababchi bo'lganlardan biri Sattorqul aka bo'lsa, yana biri ayoli Qumri. Qahramonimiz aynan Sattorqul akaning ko'magi bilan o'zini iqtisodiy jihatdan tiklab olgan bo'lsa, ma'naviy dunyosining boyishiga turtki bo'lgan shaxs ayoli Qumridir. Agar hayotda aynan Sattorqul akaday, butun jamiyat

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

kelajagi haqida qayg'uradigan, atrofida qilargalarga bee'tiborlik qilmaydigan, boshqalarga qo'ldan kelgancha yordam beradigan insonlar bo'lmasa jamiyat hech qachon yuksalmaydi. Negaki, bu turdagi shaxslar har bir sohada o'z jamoasini qo'llab qiyinchiliklarni osonlikcha yengib o'ta oladi. Yozuvchi asardagi ushbu obraz orqali jamiyatimiz Sattorqul akaday jonkuyarlarga har doim muhtoj ekanligini yana bir bor eslatib o'tgan. Mirjalol quruq obrazida esa qaysidir ma'noda "faqat o'zim bolay" zamiri ostida harakat qiluvchilar tavirlanganligiga guvoh bo'lamiz. Chunki, Mirjalol boyning kambag'allarga yordam berish imkoniyati bo'la turib ham qo'l ostida xizmat qiluvchilarga nisbatan hasislik qilgani ko'ngilni xira qiladigan holat aslida. Biroq, hech kimga sir emaski, jamiyatimizda shunday insonlar ham uchrab turadi. Qissadagi voqealar ketma-ketligiga nazar tashlar ekanmiz, qahramonimiz Mamajonni kun sayin shaxs sifatida shakllanib borishini ko'ramiz. Asardagi har bir qahramon Mamajonda qaysidir yaxshi xislat shakllanishi uchun turtki bo'lib xizmat qiladi. Qissada salbiy obrazda gavdalantirilgan Mirjalol boyning qattiqqo'lligi orqali, ya'ni ishlamagan kishiga bir burda non ham yo'qligini eshitib ham Mamajon o'zi uchun harakat qila boshlaydi. Sattorqul akaning qo'lida ishlay boshlaganida esa uning qo'ldan anchagina ishlar kelib qolgani bois, atrofda qilargalarning ko'rsatgan yo'l-yo'rig'i bilan o'ziga uy solib, oila quradi. Ayoli Qumrining harakatlari bilan esa Mamajonning savodi chiqadi. Oilali bo'lishiga qaramay maktabga borib, yozish va o'qishni o'rganadi. Yuqoridagi ismlari tilga olingan shaxslarni aynan asar qahramoni Mamajon "murda"ni tiriltirgan qahrmonlar sifatida e'tirof etsak arziydi. Boisi, ularning ko'magi bilan Mamajon oyoqqa turib, jamiyatda o'z o'rnini topdi.

Xulosa qilib aytganda, akademik yozuvchi G'afur G'ulom ushbu qissa orqali har kim o'z hayot yo'lini o'zi yaratishi lozimligini eslatibgina qolmay, hozir qilayotgan harakatlarimiz kelajagimizni belgilashiga shubha yo'q ekanligini ta'kidlaydi. Asardagi ishyoqmas, dangasa, qo'lida birorta ham hunari yo'q Mamajoning yangi hunar o'rganib, jamiyatga foydasi tegadigan shaxs sifatida shakllanishida faqatgina uning qilgan harakatlari muhim ro'l o'ynaganini ko'rsati beradi. Qissadagi yana bir e'tiborli jihat shuki, Mamajon tushida g'oyibdan boyib ketganligi va hayotda ham shunday bo'lishini xom hayollar bilan orzu qilishidir. Aynan ushbu holat orqali yozuvchi yoshlarga qarata quyidagi jummalarni takror va takror eslatmoqchi bo'lganligiga shubha yo'q: "Taqdirin qo'l bilan yaratatur inson, G'oyibdan kelajak baxt bir afsona".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>
2. G'afur G'ulom . Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi- 2016.
3. G'G'ulom. Asarlar (10 tomlik).-T.: "Adabiyot va san'at", 1-3-tomlar, 1972.
4. G'afur G'ulom "Yodgor". Adabiyot va san'at nashryoti , 1983.
5. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi- 2021.